# XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

Yangiariq tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 74-uy, +998 62 385 5336,
Xalq_deputatlari_Yangiariq_tumani_kengashi24@gmail.com

2025-yil 30-dekabr VII-20-170-12-179-K/25 Yangiariq tumani

## Yangiariq tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 04-7-09/14133-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi

## QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq Yangiariq tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari 107 145 991 mln so‘m va xarajatlari esa 107 145 991 mln so‘m ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 766,0 mln so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 345,6 mln so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Jabbarov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Bekchanov), tuman soliq inspeksiyasi (O.Abdullayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi X.Ollaberganov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Jabbarovlar zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi** **MATNAZAROV ZAFARBEK BAHADIROVICH**

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-170-12-179-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori**

ming so‘m

| № | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| | **JAMI** | **107 145 991** |
| 1 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 3 814 830 |
| 2 | Foyda solig‘i | 1 808 800 |
| 3 | Aylanmadan olinadigan soliq | 4 954 000 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 38 503 850 |
| 5 | Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan | 484 000 |
| | Aksiz solig‘i jami | 12 571 841 |
| | *alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)* | *0* |
| | *pivo* | *0* |
| *6* | *benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i* | *12 571 841* |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 4 728 000 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 7 848 270 |
| 9 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 8 375 000 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 15 587 000 |
| 11 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 73 000 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 3 048 400 |
| | shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i | 4 414 000 |

| | | |
|---|---|---|
| | Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5) | 1 765 600 |
| 13 | Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar | 0 |
| 14 | Davlat boji | 2 564 500 |
| 15 | Yig‘imlar | 905 000 |
| 16 | Jarimalar | 1 667 500 |
| 17 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 212 000 |

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-170-12-179-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun Yangiariq tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

ming so‘m

| № | Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi | Cheklangan miqdor |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, jami** | | **107 145 991** |
| 1 | Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi | *34 699 635* |
| | shundan: | |
| | *“Mening maktabim”* | *2 410 200* |
| 2 | Madaniyat bo‘limi | *5 486 366* |
| 3 | Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi | *4 148 929* |
| 4 | Sport bo‘limi | *3 612 827* |
| 5 | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi | *0* |
| 6 | Qishloq xo‘jaligi bo‘limi | *3 635 371* |
| 7 | Yangiariq tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi | *1 399 329* |
| 8 | Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari | *0* |
| 9 | Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari | *51 925* |
| 10 | Hokimiyat | *37 114 196* |
| | *Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi* | *17 084 618* |
| | *“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari* | *1 680 527* |
| | *Zahira jamg‘armasi* | *1 345 571* |
| 11 | Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi) | *929 912* |
| | shundan: | |
| | *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari* | *54 270* |
| | *Axborot-kutubxona markazlari* | *875 642* |
| 12 | Obodonlashtirish boshqarmasi | 16 067 501 |

| | | |
|---|---|---|
| 13 | Boshqa tashkilotlar | |